



BAYROG‘IMIZ, G‘URUR VA FAXRIMIZ TIMSOLIDIR

Maqsudova Gulbahor Abdujabbarovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bayrog‘imiz, g‘urur va faxrimiz timsolidir. Vatanimizning beqiyos ramzidir. Quyosh ko‘kda falakning bayrog‘i bo‘lib porlab turibdi, ko‘ngilda muhabbat bayrog‘i hilpiraydi, ongimizni esa tafakkur bayrog‘i nurlantiradi. Ozod va obod Vatanimiz — O‘zbekistonning bayrog‘i ham bizni ulug‘ maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash‘aladir.

Kalit so‘zlar: Bayrog‘, Vatan. Qonun, millat, madaniyat va boshqalar.

Kirish «O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi qonun 1991 yil 18 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o‘tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan. Davlat ramzlari har bir xalqning mustaqilligi, ozodligi, tinchligi va barqarorligi timsoli hisoblanadi. Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston hududida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtiradi. Yer yuzida ikki yuzdan ortiq davlat bor va albatta, har bir davlatning o‘z ramzlari, bayrog‘i bor. Har bir bayroq ayriча rang va timsollarga ega. Ular bilan yonma-yon balqib turgan bayrog‘imiz hech kimdan kam emasligimiz va kam bo‘lmasligimizni ko‘rsatib turadi. Shuni aytishimiz lozimki, bayroq qadim-qadimdan har bir xalq uchun mustaqillik, hurlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo‘lib kelgan.



Ajdodlarimiz ham yurt bayrog'ini muqaddas bilib, uni ko'z qorachig'idek asraganlar. Davlatchiligimiz tarixining qaysi davrini olib qaramaylik, bayroq ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, jasorat, g'alaba timsoli bo'lgan. Millat bayrog'i. U jondek aziz, nondek mo'tabar. Buyuk sohibqiron Amir Temur g'oliblik bayrog'ini yuksak ko'tardi. Bu bayroq ostida buyuk el birlashdi, u barpo etgan ulug' saltanatni dunyo tan oldi. Bu davr vatan tarixiga zarhal harflar bilan bitildi. Bayroq esa tom ma'noda mamlakat ramzi, ulug'vorlik timsoliga aylandi. Jangchilarga jangovar ruh bag'ishlash, ularning kayfiyatini ko'tarish, irodasini chiniqtirish maqsadida jang maydonlari uzra baland hilpirab turdi.

Bu bayroq eng ishonchli bahodirlar tomonidan qo'riqlandi. Bexos daydi o'q kelib tug' ko'targan jangchiga tegsa-da, u tuproqqa qorishmadi — darhol shahid sarboz o'rnini boshqasi egallaydi, maqsad janggohdagilarga bayroq ko'rinmay qolmasin. Sohibqiron bobomiz zamonida bayroqni past tutish yoki sarbozning qo'ldan tushib ketishi xosiyatsiz sanalgan. Bunga sohibqiron alohida e'tibor bergan. Bayroqning pasaytirilishi mag'lubiyat va ortga chekinish ishorasi bo'lgan.

Shuningdek, «Temur tuzuklari»da ta'kidlanishicha, dushman ustidan shijoat va mardlik ko'rsatib, g'alaba qozongan amirlar va sipohiylarga davlat timsollari — tug' va nog'ora in'om qilingan. Bu sohibqiron davlatida saltanat ramzlari nechog'lik baland maqom tutgani va ular qanday katta ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi. Vatanimiz bayrog'i. U tarixning xalqimiz boshiga musibat tushgan davrlari — o'tgan asr boshlarini yodimizga soladi. O'sha kunlar xalqimiz qalbida ketmas dog' bo'lib qoldi.

Vatan bayrog'ini tutgan qo'llar qayrildi, ozodlikni kuylagan ovozlar bo'g'ildi... Millat fidoyilari «xalq dushmani», «quloq», «sotqin» degan qora nomlar bilan ta'qibga olindi. Dunyoga ne-ne allomalarni bergan qadim xalq omi, savodsizga chiqarildi. Xalqimizga nisbatan aytilgan bu haqorat asl vatandoshlarimiz qalbida ma'rifat olovini yoqdi — ular belini mahkam bog'lab, millatni erk va ozodlik bayrog'i ostida birlashishga



chaqirdi. Bu magʻrur elning asrlar davomida orzu qilgan gʻururi, shaʼni, qadr-qimmati, irodasini ifodalovchi ozodlik bayrogʻi edi! Unda ajdodlar orzu-armoni aks etadi. Unda xalqimizning buguni, oʻlmas xotirasi, iymon-eʼtiqodi, kelajakka boʻlgan komil ishonchi jilolanadi.

Bayrogʻimiz 1992 yilning 2 martidan Oʻzbekiston toʻlaqonli suveren respublika sifatida tan olinganining ramzi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh qarorgohi oldida ham hilpiray boshladi. Mana, qariyb oʻttiz ikki yildirki, u xalqaro maydonda mamlakatimizning kuch-qudrati, mustaqilligimizning jahonaro ifodasi, xalqimiz gʻururi va iftixori timsoli boʻlib xizmat qilmoqda. Bugina emas, dunyo mamlakatlaridagi elchixonalarimiz binolari, qator xalqaro tashkilotlar qarorgohlarida ham bayrogʻimiz Oʻzbekiston ramzi boʻlib turibdi. Chet ellarda yurganimizda oʻsha yerda hilpirab turgan bayrogʻimizga koʻzimiz tushishi bilan yuragimizda cheksiz faxr uygʻonadi, ruhimiz koʻtariladi. Bayrogʻimiz timsolida dunyoning har qaysi nuqtasida ham Oʻzbekiston degan himoyachimiz, suyanchigʻimiz borligini his qilamiz. Bayrogʻimiz bugungi kunda milliy aviakompaniya samolyotlari, xalqaro yoʻnalishdagi poyezdlarimiz orqali dunyoning koʻplab mamlakatlariga «parvoz qilib», Oʻzbekistonday kelajagi buyuk davlat borligini jahonga namoyish etmoqda. Zotan, «Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻi toʻgʻrisida»gi Qonunning 2-3-moddalarida taʼkidlanganidek, davlatimiz bayrogʻi suverenitetimiz ramzidir.

Xalqaro maydonda rasmiy delegatsiyalarimizning xorijiy mamlakatlarga safarlari chogʻida, xalqaro tashkilotlarda, konferensiyalar, jahon koʻrgazmalari va sport musobaqalarida mamlakatimiz timsoli hisoblanadi. Qonunning 13-moddasiga muvofiq, fuqarolarimiz, shuningdek, Oʻzbekistonda turgan boshqa shaxslar davlatimiz bayrogʻini hurmat qilishlari shart va unga behurmatlik uchun jazo muqarrar. Bayrogʻimiz davlat idora va tashkilotlari, taʼlim muassasalari, harbiy qismlar — qoʻyingki, barcha sarhadlarida hilpirab turibdi. Qurolli kuchlarimiz safiga chaqirilgan, harbiy taʼlim muassasalarini



tamomlagan yoshlarimiz Davlatimiz bayrog‘i poyida Vatanni ko‘z qorachig‘iday asrash, uni o‘z sha‘ni va nomusiday munosib himoya qilishga qasamyod qiladi. Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarayotgan sportchilarimizning yutuqlari qalbimizni vatanparvarlik tuyg‘usiga to‘ldiradi.

Har bir inson ongu ruhiga Vatanimiz ramzlariga nisbatan chuqur hurmat tuyg‘ularini singdirish, umummilliy va ehtirom timsollari bo‘lgan bayroq, gerb va madhiyamizni ulug‘lash va ardoqlash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Toki bayroq bor ekan, millat bor, davlat bor, Vatan bor. O‘zbekiston farzandlari qayerda bo‘lmasin, qanday natijalarga erishmasin Vatan bayrog‘ini ardoqlaydi. Chunki bayroq — hurlik timsoli, ezgulik, tinchlik ramzidir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://www.lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=57181w
2. <https://parliament.gov.uz/ru/flag/>
3. «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi qonun /1991 yil 18 noyabr